



Rashk hislari va ularning turlati Чувства ревности и их разновидности Feelings of jealousy and their variety

Esemuratova Gulbanu Sultanbek qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy Psixologiya 4-kurs talabasi

esemuratovagulbanu@gmail.com

+998934861835

Saparova Eldora Tajimuratovna

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy Psixologiya 4-kurs talabasi

saparovaeldora@gmail.com

+998885072512

Jumaniyazova Sarbinaz Uzaqbay qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy Psixologiya 4-kurs talabasi

sarbinazjumaniyazov@gmail.com

+998935571210

Annotaciya: Ushbu maqolada insonlar o’rtasidagi muhabbat, undan keyin paydo bo’luvchi rashk hislari, ularning turlari va qanday namayon bo’lishi haqida



ma'lumotlar keltirildi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о любви между людьми, чувствах ревности, возникающих после нее, их видах и способах проявления.

Abstract: This article provides information about love between people, feelings of jealousy that arise after it, their types and how they manifest.

Kalit so'zlar: muhabbat, rashk hislari, zolimona zashk, ishonchsizlik.

Ключевые слова: любовь, чувство ревности, жестокая ревность, недоверие.

Key words: love, feelings of jealousy, cruel jealousy, mistrust.

Kishilik jamiyati yuzaga kelibdiki, insonlar orasidagi ijobjiy va salbiy munosabatlar barcha kishilarning diqqat markazida muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shuning uchun bu masalalar qadim zamonlardan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalarida, doston, qo'shiq va ertaklarda, donishmandlaming fikr va qarashlari sifatida o'ziga xos ravishda munosabat bildirish va tahlil qilish obyekti bo'lib kelgan. Shunisi taassuflanarligi, hozirgi kunga qadar *muhabbat* tushunchasiga yagona ilmiy ta'rif, tavsif berilmagan, bevosita unga bag'ishlangan ilmiy asarlar nihoyatda kam. Kishilar ongida bo'lgani kabi badiiy asarlarda ham muhabbat haqidagi turlicha, ko'pincha bir-biriga zid fikr va ta'riflarni uchratish mumkin. Ba'zi mualliflar esa muhabbat hislarini sof ruhiyat komponenti sifatida bayon etib, undagi fiziologik komponentni inkor etadilar. Fiziologik komponent hayvonlarga xos bo'lgan organik ehtiyojlarni qondirishdan iborat instiktning ifodalanishi sifatida idrok etiladi. Shu sababli ham ular odam hayvoniyl hirsdan, jinsiy intilishlardan ozod bo'lishi kerak deb hisoblashadi va muhabbat hislariga biryoqlama yondashishadi.

Sevishganlar yoki oila qurayotganlaming o'zaro munosabatlarini xarakterlovchi



vaziyat, sharoitlardan biri bu- **rashkdir**. Sevikli odamidan ajralib qolish, uni yo'qotib qo'yish xavfini hech qachon boshdan kechirmagan odam rashkni qandaydir tushunarsiz aqlsizlikdek tasavvur qilishi mumkin. Sevikli odamidan ajralib qolish nima ekanligini bir marta bo'lsa ham boshidan kechirgan odam esa rashkchini osongina tushunadi va unga ma'lum darajada hamdardlik bilan munosabatda bo'ladi. Rashk aksariyat hollarda xususiy mulkchilik psixologiyasi izlarini o'zida namoyon qiladi, ayrim odamlarda «*rashk qiladimi — demak sevadi!*» — degan qarash hozir ham mavjud. Ko'pchilik odamlar uchun rashk — sevgining o'ziga xos zarur «*ziravor*»laridan biridir.

Umuman olganda, albatta rashkchi odamlarga havas qilib bo'lmaydi. O'zidagi bu hisni yenga olmaydigan odamlar — doimo xavotirda, hadikda yashaydigan baxtsiz odamlardir. Ularning ikki karra baxtsizligi yana shunda hamki, ular bir vaqtning o'zida ham jabrlanuvchi, ham azob beruvchi, ham zoravon, ham qudirlar.

Ishonchsizlik, doimo xiyonat, shubhalanish muhitini yuzaga keltirar ekanlar, bundan ularning o'zları birinchi bo'lib azoblanadilar. Ular arzimagan bahona tufayli yoki uning bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar yolg'iz yoki oshkora janjallarni yuzaga keltirishga doimo tayyor bo'lishadi. Bu esa ularning uyda, ishda va butun hayotida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlariga, jumladan jinsiy munosabatlariga ham jiddiy ta'sir qiladi va ko'pincha ayanchli psixologik xastaliklar, shikastlanishlarga ham olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda har ikki jins vakillari o'z juftiga rashk qilish uchun hech qanday sabab, asos, bahona yaratib qo'ymaslikka harakat qilishi, ayniqsa sevgining uyqu davrida ko'proq iliqlik, sabr-toqat, chidamlilikni namoyon qilishlari lozim bo'ladi.

Psixologlar rashkni **zolimona** rashk va «*izzat-nafsi poymol qilinganlikdan*»



bo'ladigan rashklarga farqiaydilar. **Zolimona** rashkni odatda xudbin (egoist), qaysar, zolim, hissiy sovuq va begonalashib ketgan, yotsiraydigan, yetarlicha avtoritar odamlar yuzaga keltiradilar. Bunday odamlar odatda turmush o'rtoqlariga faqat bir buyumdek, o'z manfaati, farog'atini qondirish obyekti, o'z mulkidek qaraydilar. Ularda boshqa odamning shaxsiy xususiyatlarini sezish, hurmat qilish qobiliyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Izzat-nafsi, sha'ni kamsitilganlikdan bo'ladigan rashk — bu odatda hayajonlanadigan, har narsadan gumonsirayveradigan, o'ziga ishonmaydigan, xavfxatar va noxushliklarni bo'rttirishga moyil, nuqsonlar kompleksidan jabrlanuvchi odamlarga xosdir. Ularning rashki unchalik g'azabli, qahrli bo'lmasligi, biroz yumshoqroq namoyon bo'lishi mumkin. Biroq uning ham o'z mohiyatiga ko'ra oilaviy baxt uchun zahri, zarari kam emas.

Ba'zan «*undalma*» deb nomlanuvchi rashk ham farqlanadi. Bunday rashkning manbayi bo'lib, o'zining turmush o'rtog'iga vafosizligini unga ko'chirish yoki o'zining ishonchsizligi turmush o'rtog'iga doimo xiyonat qilishga tayyorligi kabilar xizmat qilishi mumkin, Bu, ayniqsa nikohdan oldingi «biyo-seksual tajribaning xavfli asoratlardan hisoblanadi. Lov etib yongan rashk mumkin bo'lgan barcha «faktlarning «qulog'idan» tortib , turmush o'rtog'inining eng arzimagan, beozorxatti-harakatlari, qiliqlarini o'zining yovuz , zolim, tuban nurlari, ranglari bilan talqin qilib, arzimagan narsalarini shubha botqog'iga bulg'ab, ulardan o'zining namayon bo'lishi uchun qo'shimcha quvvat manbaiyi sifatida foydalanishadi. Ishdan ozgina kechikib qolish, do'stlar davrasida beozor imo-ishora yoki so'z allaqachon utililib yuborilgan bolalik ishtiyoqlari va shu kabi hayot ikir-chikirlarining hammasi g'oyat darajada puxtalik bilan o'z turmush o'rtog'iga



qarshi, uni ayblovchi aktlarning qalin tomlariga yig'iladi. Qizig'i shundaki, bunday rashkka qarshi kuchli asoslangan ta'sirlar ham, uni to'xtatib qolishga urinishlar ham qaytanga uni kuchaytiradi va yanada qizdirib yuboradi, Xuddi qopag'on itni zanjirga bog'lab qo'yilsa battar darg'azab bo'lib, «tartib buzuvchilariga» tashlanishi va hurishi, ichib olgan janjalkash odamning qo'lidan tutib turilsa, o'z, tajovuzkorligini yanada kuchli namoyon qilganidek, rashk ham shunga o'xshash holatni namoyon qiladi. Aynan shuning uchun ham umuman «taqiqlangan mevaning mazasi odamlar uchun shu qadar shirin tuyulsa kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.G'.Shoumarov "Oila psixologiyasi"; T., - 2008;
2. Karimova V.M. Akravova F.A. "Psixologiya",. T., - 2000;
3. B.M.Каримова "Оила психологияси" дарслик, Т., - 2007.